

## QO'LQOPLI VA SIMLI QO'G'IRCHOQ TURLARI MEXANIKASI

Mirsoliyeva Durdona

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti*

*Farg'ona mintaqaviy filiali*

*Qo'g'irchoq teatr aktyorligi*

*3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada asosan Qo'g'irchoq teatrining qo'lqopli va simli qo'g'irchoq turlarining mexanikasi haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Qo'g'irchoq, sirk, aktyor, qo'lqopli, rezina, gapit, purjina, qattiq, mustahkam, mutlaqo, sodda, umumiy, simlar, teatr, mexanik.*

Qadimda san'atning ikki turi yani sirk va qo'g'irchoq teatrini o'zini mujassam eta olgan san'at turi bu - Qo'g'irchoq teatri bo'lib va shu bilan insonlar olam sirlarini o'rganishga yordam beradi. Sirkda oddiy inson qila olmaydigan ishni osonlik bilan bajaradigan sirk artisti bajarib tomoshabinni hayratga soladi. Qo'g'irchoq tashqi o'xshashlik bilan odam qila olmaydigan narsani qilsa yoki aksincha, tirik odamdan farqi unga taqlid qilganda eng katta ta'sirga erishadi. Albatta, qo'g'irchoq sirkda bu ikkala vazifani ham bajarish mumkin.

Teatrdan qo'g'irchoqning plastik imkoniyatlarini ko'rsatish mazmunli va yetarli bo'ladi. Asar oxirida tomoshabin murakkab bo'lgan plastik harakatlarni eng oddiy sirlarini mehanika bilan bog'liqligini biladi. Tomoshabinning kulgisi va olqishlari hamda hayratga solishi spektaklning yaxshi bo'lganidan darak beradi. Axir, bularning barchasini qila olmaydigan harakatlarni osongina bajarishga imkon topa olgan qo'g'irchoq mexanik ustasining alohida roli bor.

Simli Qo'g'irchoqlarning bosh qismlari qo'lqopli qo'g'irchoqlar singari tayyorlanadi. U ham xuddi qo'lqopli qo'g'irchoqnidek aktyor barmog'iga kiydirilishi mumkin. Shu o'rinda aktyorning qo'li qo'g'irchoqning ichiga bilagigacha kirganligi sababli, qo'g'irchoqning harakatlari juda jonli va jozibali bo'ladi. Bu kabi boshqarish usulida simli qo'g'irchoqning bo'y basti, qo'lqopli qo'g'irchoqning bo'y basti bilan teng bo'lib qoladi. Odatda simli qo'g'irchoqlarning bo'y balandliklari 60-80 sm.ni tashkil etadi va bosh qismi esa qo'g'irchoqboz qo'lida tutib turgan sim(gapit)ga o'rnatiladi.

Keyinchalik qo'g'irchoqning yelkaları tushib qolmasligi uchun gapitni yelkalariga biriktirilgan mato yoki rezinalarga ilish mumkin. Mato va rezina cho'ziluvchan bo'lganligi sababli, ora-orada tekshirib tortib turish lozim.

Uzun gapit ishlatilayotganda qo'g'irchoqni bel qismidan bukish uchun uni tegishli joydan kesib, ikkala qismni rezina yoki qattiq purjina bilan o'zaro mustahkam qilib qotirish kerak. Gapitni, ichki tarafdan qo'l yordamida yoki tashqi tarafdan jag' qismiga biriktirilgan ip orqali bukish mumkin.

Qo'g'irchoqning bosh qismiga o'rnatilgan gapit aktyorning qo'llarini qo'g'irchoqni boshqarishdan mutlaqo ozod etadi. Ammo bu holatda qo'g'irchoqning tanasi kam harakatli bo'lib qoladi.

Eng sodda mehaniklashgan gapit yordamida kam sezilarli holatda bo'lsa ham, bosh harakatlari tananing umumiy harakatlari bilan amalga oshiriladi. Ushbu holatning oldini olish maqsadida qo'g'irchoqboz qo'g'irchoqning boshini o'g'irish vaqtida uning tanasini qo'l simi bilan tutib turishiga to'g'ri keladi. Mehaniklashgan gapitni ishlatilishida, qo'g'irchoqning tanasiga o'rnatilgan sim aktyor qo'li bilan ishonchli ravishda tutib turiladi va boshning burilish harakatlari qo'g'irchoqning umumiy tana burilishlarini keltirib chiqarmaydi. Bundan hattoki tanani simlar yordamida ushlab turmasa ham bo'ladi.

Endi, ko'plab teatrlarda qo'yiladigan, ko'rinishi va tuzilishidagi u yoki bu o'zgarishlar bilan qo'llaniladigan mexaniklashgan gapitning tuzilishi haqida so'z yuritamiz.

Gapit o'zi aslida uch qismdan iborat boladi: A-yelkalar bilan birlashtirilgan sim, B-sim, V-boshni buradigan va egadigan yog'ochli simi. B detali bu simning o'zi, unga zich ravishda birlashtirilgan yog'ochli xalqacha va boshqalarning barchasi qotirilgan simdan iborat bo'ladi. Aktyor ushbu xalqachani burganida qo'g'irchoq boshini buradi. Aktyor xalqachani pastga tushirganida, qo'g'irchoqning boshi ham egiladi. Qo'g'irchoq boshini aylantiradigan va egdiradigan xalqacha sim bilan bog'langan bo'ladi. Qo'g'irchoqning boshi, uning tanasini ushlab turuvchi sim bilan, mustahkam ammo harakatchan tirgak, bosh va yelkaga xalqachali sharnirlar yordamida qattiq sim bilan yoki mustahkam charmga o'rnatilgan qattiq rezina naychasi bosh qismiga qotirilgan tirgak bilan birlashtirilgan bo'ladi.

Yuqoridagilardan tashqari boshqa usullar ham bor. Yelkalarga qotirilgan, uchlari yumaloqlashtirilgan reyklar ham boshning tirgagi bo'lishi mumkin. Bosh qismi qotirilgan yog'och bo'lagida, tegishli hajmda tuynukcha qilinib, u reykaning yumaloqlashtirilgan uchiga kiydiriladi. Yog'ochchanning ichida, qo'g'irchoqning boshi chiqib ketmasligi uchun uni tortib turadigan ip yoki charm o'tkazilgan bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (D.D. Abdullayev, L.D. Usmanova)
2. Qo'g'irchoq mexanikasi konstruksiyasi (B. Mamatqulov)
3. Qo'g'irchoq yasash texnologiyasi (A. Abdusalilov, B. Mamatqulov)